

BOSHLANG'ICH VA O'RTA BOSQICHDA YAPON TILI GRAMMATIKASINI O'QITISH MUAMMOLARI VA ULARNING METODIK YECHIMLARI (Shieki-Ukemi nisbati misolida)

Abduraximova Diyora,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek zabon talabalarga yapon tilining boshlang'ich-yuqori va o'rtta bosqichlarida uchraydigan eng murakkab grammatik hodisalardan biri – shieki-ukemi (majburlik-majhullik) nisbatini o'qitish muammolari keng qamrovli tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi ushbu grammatik konstruksiyaning lingvokulturologik xususiyatlarini, xususan, “meivaku” (jabr ko'rish) psixologik konseptini chuqur tahlil qilish hamda o'qitish jarayonidagi qiyinchiliklarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida bartaraf etishdan iborat. Tadqiqot doirasida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 1, 2 va 3-kurslarida tahsil olayotgan jami 100 nafar talaba ishtirokida sotsiolingvistik so'rovnomma va xatolar tahlili (Error Analysis) o'tkazildi. Natijada, ona tili interferensiyasi oqibatida yuzaga keladigan sintaktik, morfologik, pragmatik va leksik-semantik xatolar tizimlashtirildi. Muammolarni hal etish va ta'lim sifatini xalqaro standartlarga olib chiqish maqsadida kognitiv-vizual yondashuv, induktiv ta'lim, vaziyatli o'yinlar (role-play) hamda raqamli pedagogika vositalaridan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: yapon tili grammatikasi, shieki-ukemi, majburlik-majhullik nisbati, meivaku, ona tili interferensiyasi, xatolar tahlili, raqamli pedagogika, interaktiv metodlar, JLPT, CEFR.

Аннотация. В данной статье проводится всестороннее исследование проблем преподавания одного из самых сложных грамматических явлений, встречающихся на начально-продвинутом и среднем этапах изучения японского языка — залога шиэки-укэми (побудительно-страдательного) узбекоязычным студентам. Целью исследования является глубокий анализ лингвокультурологических особенностей данной грамматической конструкции, в частности, психологического концепта «мэйваку» (испытывать неудобство/страдание), а также преодоление трудностей в процессе обучения с помощью современных педагогических технологий. В рамках исследования был проведен социолингвистический опрос и анализ ошибок (Error Analysis) с участием в общей сложности 100 студентов 1, 2 и 3 курсов Ташкентского государственного университета востоковедения. В результате были систематизированы синтаксические, морфологические, прагматические и лексико-семантические ошибки, возникающие вследствие интерференции родного языка. В целях решения выявленных проблем и приведения качества образования в соответствие с международными стандартами были разработаны практические рекомендации по использованию когнитивно-визуального подхода, индуктивного обучения, ролевых игр (role-play) и средств цифровой педагогики.

Ключевые слова: грамматика японского языка, шиэки-укэми, побудительно-страдательный залог, мэйваку, интерференция родного языка, анализ ошибок, цифровая педагогика, интерактивные методы, JLPT, CEFR.

Abstract. This article comprehensively investigates the problems of teaching one of the most complex grammatical phenomena encountered at the pre-intermediate and intermediate levels of the Japanese language—the shieki-ukemi (causative-passive) voice—to Uzbek-speaking students. The purpose of the study is to conduct an in-depth analysis of the linguocultural features of this grammatical construction, in particular, the psychological concept of "meiwaku" (experiencing annoyance/suffering), and to overcome difficulties in the teaching process using modern pedagogical technologies. Within the framework of the research, a sociolinguistics survey and Error Analysis were conducted with the participation of a total of 100 students studying in their 1st, 2nd, and 3rd years at the Tashkent State University of Oriental Studies. As a result, syntactic, morphological, pragmatic, and lexico-semantic errors caused by mother tongue interference were systematized. In order to solve these problems and align the quality of education with international standards, practical recommendations were developed

regarding the use of a cognitive-visual approach, inductive teaching, situational games (role-play), and digital pedagogy tools.

Keywords: Japanese language grammar, shieki-ukemi, causative-passive voice, meiwaku, mother tongue interference, error analysis, digital pedagogy, interactive methods, JLPT, CEFR.

Kirish. O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi ta’lim, iqtisodiy va madaniy aloqalarning jadal kengayib borishi mamlakatimizda yaponshunoslik sohasini yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi kunda xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, xususan, yapon tilini nafaqat muloqot vositasi, balki ilmiy tadqiqotlar va professional faoliyat quroli sifatida o‘zlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning yapon tilini o‘rganishdagi yakuniy maqsadi shunchaki so‘zlashuv emas, balki CEFR C1 hamda JLPT N1 kabi eng yuqori darajadagi xalqaro til bilish sertifikatlarini qo‘lga kiritish, murakkab ilmiy ishlarni tarjima qilish va yuqori darajadagi nutq (スピーチ) hamda taqdimotlar qila olish malakasini shakllantirishdir.

Yapon tilini chet tili sifatida o‘qitishda grammatik qoidalarni to‘g‘ri, tushunarli va lingvokulturologik yondashuv asosida yetkazib berish metodikaning asosi hisoblanadi. Boshlang‘ich-yuqori va o‘rta bosqichlarda o‘rgatiladigan grammatik mavzular ichida *shieki-ukemi kei* (させられる – majburlik-majhullik nisbati) o‘zbek zabon talabalar uchun o‘zlashtirilishi va nutqqa tatbiq etilishi eng murakkab konstruksiyalardan biridir. Bu murakkablik shunchaki affikslarning ko‘pligi bilan emas, balki yapon xalqining milliy mentalitetiga xos bo‘lgan “meivaku” (迷惑 – birovning harakati oqibatida psixologik yoki jismoniy jabr ko‘rish, noqulaylik sezish) tushunchasining gap qurilishida o‘z aksini topishi bilan izohlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Yapon tilidagi fe‘l nisbatlarining xususiyatlari, ularning sintaktik va semantik tabiati jahon hamda mahalliy tilshunoslikda qator olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Yapon tilshunosligining yirik vakili Kuno Susumu (1973) o‘zining fundamental asarlarida yapon tilidagi majhullikni “to‘g‘ridan-to‘g‘ri” va “bilvosita/jabrlanuvchi” (迷惑受身 - meivaku ukemi) turlariga ajratib, shieki-ukemi shaklini to‘g‘ridan-to‘g‘ri meivaku guruhiga kiritgan.[6.299] Uning ta’kidlashicha, ushbu konstruksiya subyektning irodasiga mutlaqo zid bo‘lgan harakatni tasvirlashda yagona leksik-grammatik vosita hisoblanadi.

Teramura Hideo o‘zining “Yapon tili sintaksisi va semantikas”(1982) asarida .[7.185] ushbu nisbat doimo o‘z xohishiga qarshi bajarilgan harakatni (unwillingness) ifodalashini batafsil pragmatik tahlil qilgan. Yapon tilini chet elliklarga o‘qitish bo‘yicha yetakchi metodist olim Iori Isao esa “Yangi yapon tilshunosligiga kirish” (2001) asarida.[8.145] o‘rganuvchilarning amaliy nutqda duch keladigan morfologik qiyinchiliklariga e’tibor qaratib, qisqartma shakllar yasalishidagi fonologik silliqlik (kakofoniyadan qochish) qoidalarni keltirib o‘tgan.

G‘arb tilshunosligida Masayoshi Shibatani (1990) yapon tili ortirma va majhullik nisbatlarining g‘arb tillaridan farqli o‘laroq affiksial (agglyutinativ) tuzilishga ega

ekanligini ta'kidlasa.[9.317] Trans-Yevrosiyo tillarini qiyosiy o'rganish doirasida olima Martine Robbeets(2007) turkiy (shu jumladan o'zbek) va yapon tilidagi majburlik-majhullik qo'shimchalarining ustma-ust ulanish mexanizmlarini qiyoslagan .[10.235]

O'zbekistonda yapon tilini o'qitish bo'yicha Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti olimlari, xususan N. Shirinova va Sh. Kambarovanning o'quv qo'llanmalari (2018) keng qo'llaniladi. O'zbek tilida fe'l nisbatlarining nazariy asoslari atoqli olim A. Hojiyev tomonidan yoritilgan.[4.190] Talabalar nutqidagi tizimli xatolarni tahlil qilishda esa S.P. Corderning klassik "Xatolar tahlili" (Error Analysis)(1967) nazariyasi tadqiqotimizning metodologik tayanchi bo'lib xizmat qildi.[11.161]

Tadqiqot metodologiyasi.Tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, ishda qiyosiy-tipologik tahlil, lingvokulturologik yondashuv hamda o'quv jarayonini bevosita kuzatish va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 1, 2 va 3-kurslarida tahsil olayotgan jami 70 nafar talaba tanlab olindi.

So'rovnoma bosqichlari va demografiyasi:

- 1-kurs talabalari (Grammatikani endi o'rganayotganlar) - 25 nafar.
- 2-kurs talabalari (Nazariyani amaliyotga tatbiq etayotganlar) - 35 nafar.
- 3-kurs talabalari (Murakkab matnlar tahlili va yozma nutq ustida ishlayotganlar) - 40 nafar.

Talabalarning bilim darajasi va psixologik to'siqlarini aniqlash maqsadida 15 ta yopiq va ochiq turdagi savollardan iborat so'rovnoma hamda kichik yozma tarjima testi tashkil etildi. Natijalarga ko'ra, respondentlarning 78% idan ortig'i Shieki va Ukemi nisbatlarini alohida-alohida o'zlashtirishda muammoga duch kelmagan bo'lsa-da, ularning qo'shma shakli bo'lmish Shieki-Ukemi qo'llanilganda jiddiy qiyinchiliklarga (84%) duch kelishini ta'kidlashgan.

Tahlillar va natijalar.Olingan yozma ishlar va og'zaki nutq amaliyotlari tahliliga ko'ra, o'zbek zabon talabalarning yapon tili fe'l nisbatlarini o'zlashtirishidagi xatolar asosan to'rt yirik guruhga bo'linadi. Ushbu xatolar tilning strukturaviy tafovutlaridan (interferensiya) hamda madaniy dunyoqarashdagi farqlardan kelib chiqadi.

Xatolik turi va sababi	Noto'g'ri (Interferensiyaviy) Shakl	To'g'ri (Normativ) Shakl	Ilmiy-Metodik Tahlil va Izoh
1. Sintaktik xatoliklar (Yuklamalar inversiyasi)	私に先生は本を読 まされた。 Watashi ni sensei wa hon o yomasareta.	私は先生に本を 読まされた。 Watashi wa sensei ni hon o yomasareta.	o'zbek tilida gap egasi qat'iy majburlovchi shaxs bo'ladi. Yapon tilidagi "meivaku" konseptida esa diqqat markazida qurbon turadi. Shuning uchun "wa" (は) yuklamasi majburiy ravishda qurbonga, harakatni majburlovchiga esa "ni" (に)

Xatolik turi va sababi	Noto'g'ri (Interferensiyaviy) Shakl	To'g'ri (Normativ) Shakl	Ilmiy-Metodik Tahlil va Izoh
			qo'yilishi shart.
2. Morfologik xatoliklar (Kakofoniya va qisqartmalarni bilmaslik)	毎日漢字を書かせられる。 Mainichi kanji o kakasaserareru.	毎日漢字を書かされる。 Mainichi kanji o kakasareru.	I guruh fe'llari uchun qisqartirilgan shakl (kakasareru) normativ hisoblanadi. Talabalar qoidani mexanik yodlab, fe'l negiziga ortiqcha "sa" va "se" bo'g'inlarini qo'shib yuborishadi, natijada quloqqa g'alati eshtiladigan shakllar yasaladi.
3. Pragmatik xatoliklar ("Meivaku" konseptining buzilishi)	先生にいい本を読まされました。 Sensei ni ii hon o yomasaremashita.	先生にいい本を読んでもらいました。 Sensei ni ii hon o yonde moraimashita.	Shieki-ukemi shakli qat'iy ravishda noxush, jabr ko'rish ma'nosida ishlatilishi shart. Talabalar o'z xohishi bilan kitob o'qib ilhomlanganda ham shu strukturani qo'llashadi, bu kulgili va kinoyali tuyuladi. Ijobiy holatda "te morau" ishlatilishi kerak.
4. Leksik-semantik cheklovlar (Tranzitivlik va obyekt tushib qolishi)	山田さんは部長に本読まされた。 Yamada-san wa buchou ni hon yomasareta.	山田さんは部長に本を読まされた。 Yamada-san wa buchou ni hon o yomasareta.	o'timli fe'llar harakat obyektidan albatta "o" (を) yuklamasini talab etadi. o'timsiz fe'llarning oddiy shieki-ukemi yasalishiga o'rganib qolgan talabalar obyektini ko'rsatuvchi yuklamani tushirib qoldirishadi.

Aniqlangan grammatik, sintaktik va lingvokulturologik muammolarni bartaraf etish, o'quvchilarning akademik nutqqa bo'lgan tayyorgarligini oshirish hamda zerikarli mexanik yodlashdan qochish maqsadida, universitet ta'lim tizimiga bir qator zamonaviy yondashuvlarni integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Kognitiv-Vizual Yondashuv (Canva va Gamma vositalarida)

Miya axborotning asosiy qismini vizual tarzda qabul qiladi. Sintaktik chalkashliklarning (wa va ni yuklamalari inversiyasi) oldini olish uchun "Kim qurbon?" va "Kim majburlovchi?" kabi kognitiv bo'laklarni ranglar va grafikalar orqali tushuntirish kerak. O'qituvchi **Canva** yoki **Gamma** kabi taqdimot platformalaridan foydalanib, gap strukturasi animatsion ierarxiasini yaratishi mumkin. Jabrlanuvchi (wa) doimo ekran

markazida ko‘k rangda xafa yuz ifodasi bilan, majburlovchi (ni) esa qizil rangda dominant holatda tasvirlanadi.

Drill uslubi va Avtomatlashtirish (Quizlet orqali)

I guruh fe‘llaridagi morfologik xatoliklarni bartaraf etish faqatgina ko‘p marta takrorlash va quloqni o‘rgatish orqali amalga oshadi. Buning uchun **Quizlet** platformasida maxsus “Shieki-ukemi Flashcards” to‘plamlarini yaratish samaralidir. Talaba bo‘sh vaqtda bu kartochkalarni tinglab, og‘zaki takrorlash orqali miyadagi lingvistik bloklarni yengib o‘tadi.

Kommunikativ-Situatsion Metod (Role-play va Kahoot)

“Meivaku” hissini faqatgina tilshunoslik qoidalari bilan emas, balki his-tuyg‘ular bilan tushuntirish mumkin. Dars jarayonida quyidagi kabi qisqa ssenariy asosida rolli o‘yinlar tashkil etilishi kerak:

[Ssenariy: Qattiqqo‘l boshliq va charchagan xodim]

- Vaziyat: Juma kuni kechqurun, ish vaqti tugagan. Xodim uyga ketmoqchi, lekin boshliq to‘xtatadi.

- Boshliq (qat‘iy ohangda): 「悪いけど、この資料のコピーを100部取ってくれ。」
(Uzr, lekin mana bu materialdan 100 ta nusxa olib ber.)

- Xodim (xafa va norozi ohangda uchinchi shaxsga noliyotgandek):
「ああ、疲れているのに、部長にコピーを取らされた…」

(Oh, shunday charchab turganda, boshliq menga majburlab nusxa ko‘chirtirdi...)

Bu jarayonni yanada qiziqarli qilish uchun **Kahoot!** platformasida situatsion testlar uyushtirish mumkin.

Xulosa. Mazkur maqolada olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yapon tilidagi shieki-ukemi nisbati shunchaki fe‘l shakllarining mexanik yig‘indisi emas. Bu konstruksiya yapon xalqining tafakkur tarzini, ularning shaxslararo munosabatlardagi nozik psixologik ierarxiyasini va o‘zaro ijtimoiy masofasini (meivaku) o‘zida teran aks ettiruvchi ko‘p qirrali lingvokulturologik hodisadir. o‘zbek zabon talabalari uchratayotgan asosiy murakkabliklar ham aynan shu jihatni e‘tibordan chetda qoldirib, tillarni sof sintaktik qoliplar asosida mexanik yodlash hamda ona tili interferensiyasi doirasidan chiqqan olmaslik oqibatida kelib chiqmoqda.

Tavsiya etilgan metodik yangiliklarning amaliyotga izchil joriy etilishi yapon tili o‘rganuvchilarining nafaqat o‘rta darajada qotib qolmasdan, balki oliy akademik yetuklikni belgilovchi **JLPT N1** va **CEFR C1** kabi eng yuqori darajadagi xalqaro standartlarni muvaffaqiyatli egallashiga, kelajakda jonli nutqda hech qanday sintaktik va madaniy xatolarsiz, sof yaponcha tafakkur bilan muloqot qila oladigan yetuk kadrlar bo‘lib yetishishiga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алпатов В.М. Теоретическая грамматика японского языка. – М.: Наталис, 2005. – 150-155 б.
2. Нечаева Л.А. Японский язык для начинающих. Ч. 2. – М.: Московский лицей, 2001. – 210-213 б.
3. Ширинова Н.Д., Камбарова Ш. Япон тили (Ўқув қўлланма). – Тошкент: ТДШИ, 2018. – 185 б.
4. Bakhromkhodjaevna, S. B. (2021). The concept of “Transfer” and its role in translation studies. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(3), 302-305.
5. Kuno S. The Structure of the Japanese Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1973. – 299-301 b.
6. Teramura H. 日本語のシンタクスと意味 (Nihongo no shintakusu to imi) I. – 東京: ころしお出版,

1982. – 185-188 b.
7. Iori I. 新しい日本語学入門 (Atarashii nihongogaku nyuumon). – 東京: スリーエーネットワーク, 2001. – 145-148 b.
 8. Shibatani M. The Languages of Japan. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 317-321 b.
 9. Robbeets M. The causative-passive in the Trans-Eurasian languages // Turkic languages. – 2007. – № 11(2). – 235-268 b.
 10. Corder S.P. The Significance of Learners' Errors // International Review of Applied Linguistics in Language Teaching. – 1967. – № 5(4). – 161-170 b.

